

O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATI ZAMONAVIY DAVRDA

*Saypillayev Bexruz O‘tkir o‘g‘li*

*O‘zbekiston milliy universiteti*

*Siyosatshunoslik 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati, uning prinsiplari hamda xalqaro maydondagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosatga yondashuvlari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston tashqi siyosati, multivektor, xalqaro maydon, C5+1 sammiti, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi

### **Kirish**

O‘zbekiston so‘nggi yillarda keng ko‘lamli, izchil o‘zgarishlar qilishda samarali harakat qilmoqda. Jumladan, xalqaro hamjamiyatda mamlakatimiz iqtisodiyoti liberallashtirilishi, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro ishonch mustahkamlanishi va yana Afg‘oniston iqtisodiyotida integratsiyalashuvni ta‘minlashda amaliy qadamlar tashlanishi dunyoda O‘zbekistonning nufuzi oshishiga sabablardandir. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiqlik, teng huquqlilik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug‘lash kabilar tashkil etadi. Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e‘tirof etgan ochiq, yakdillik talablariga asoslanadi.

### **Asosiy qism**

O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanadi.[1]

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining strategik asosi Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash bilan uzviy bog‘liqdir. Davlatimiz o‘z tashqi aloqalarini aniq tamoyillar asosida qurib, mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va transport yo‘laklarini kengaytirish masalalariga asosiy e‘tiborni qaratmoqda. Mazkur strategik maqsadlarni hayotga tatbiq etishda O‘zbekiston Respublikasi quyidagi asosiy tashqi siyosiy tamoyillarga amal qiladi:

**Mustaqilligimiz va suverenitetni mustahkamlash.** O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash va suveren qarorlar qabul qilish huquqini saqlab qolish asosiy tamoyil hisoblanadi;

**Ochiq va konstruktiv siyosat.** Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashqi siyosiy strategiyasi mamlakatimizni xalqaro hamjamiyat bilan

ochiq va konstruktiv muloqotga tayyor davlat sifatida ko'rsatadi;

**Ko'p tomonlama diplomatiya (multivektor).** O'zbekistonning turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratayotgani va aloqalarni kuchaytirishga bo'lgan harakatlarining jadallashavida ko'rinadi;

**Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash.** Yangi O'zbekiston strategiyasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni saqlash ustuvor vazifadir. Zero, mamlakatimiz Afg'oniston muammosi va mintaqaviy terrorizmga qarshi kurashda ham yetakchi rol o'ynamoqda.

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosiy yondashuvlari:**

**Mintaqaviy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik aloqalari.** Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi tashqi siyosat kursining markazida Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik sheriklikni mustahkamlash turadi. Mazkur yo'nalish shunchaki siyosiy muloqot bilan cheklanib qolmay, balki suv resurslaridan oqilona foydalanish, transchegaraviy transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish va umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi hayotiy masalalarni qamrab oladi;

**Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya.** Yurtimizda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi bilan tashqi siyosatda ham iqtisodiy yo'nalishga katta urg'u berilmoqda. Bu O'zbekistonni global bozorga chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro savdo bo'yicha yangi shartnomalarni tuzish orqali amalga oshirilmoqda;

**Ko'p tomonlama diplomatiya va xalqaro institutlar bilan aloqalar.** O'zbekiston jahon hamjamiyatining faol va mas'uliyatli a'zosi sifatida global jarayonlarda ishtirok etishni kengaytirmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va Islom Hamkorlik Tashkiloti kabi nufuzli tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Bu strategiya nafaqat mamlakatimiz manfaatlarini himoya qilish, balki: Global xavfsizlik va barqaror rivojlanish maqsadlariga hissa qo'shish; Ijtimoiy tenglik va inson huquqlari masalalarida xalqaro tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi.[2]

Taraqqiyot strategiyasi bosh mutaxassisi, O.Qudratovning fikrlariga ko'ra, O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda nafaqat O'zbekistonni, balki Markaziy Osiyoning farovonligi uchun jon kuydirayotgani, mintaqani sanoati rivojlangan, obod va dunyo bilan keng integratsiyalashgan hududga aylantirish orzusi bilan yashab, shunga monand mehnat qilayotgan yetakchi sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston qisqa fursat ichida xalqaro maydonda o'z nufuzini sezilarli darajada mustahkamlab, salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdi. Prezident tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan modernizatsiya strategiyasi, xususan, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan qo'shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash siyosati bugun jahon hamjamiyati tomonidan yuksak

baholanmoqda[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son farmoniga muvofiq takomillashtirilgan “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 5-ustuvor yo‘nalishi “ “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan izchil siyosatni davom ettirish” deb nomlangan bo‘lib 90-100-maqsadlarni o‘z ichiga oladi[3]. Tashqi siyosiy faoliyatdagi asosiy vazifalardan biri — bu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishdir. Buni amalga oshirish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga bir qancha vazifalar qo‘yilgan[1]. Bular:

- 1) mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish
- 2) markaziy Osiyoda barqarorlikni va tinchlikni saqlash va mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish
- 3) dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko‘p qirrali tizimini shakllantirish
- 4) O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslarini mintaq va jahon siyosatidagi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha ilgari surish
- 5) mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida yordam ko‘rsatish
- 6) xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etishda faol ko‘mak berish
- 7) mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko‘rsatish
- 8) transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko‘maklashish
- 9) xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta‘minlash
- 10) xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash[1].

O‘zbekiston tashqi siyosatining markazida Markaziy Osiyo mintaqasi turadi. Davlatimiz mintaqaviy xavfsizlikni, xususan, Afg‘onistondagi barqarorlikni ta‘minlash hamda iqtisodiy-transport aloqalarini rivojlantirishni maqsad qilgan. Shuningdek, transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegara masalalarini yakunlash va qo‘shni davlatlar bilan barcha sohalarda — ilm-fandan tortib fuqarolik aloqalarigacha — yaqin hamkorlikni mustahkamlash ustuvor vazifa etib belgilangan. O‘zbekiston mintaq va davlatlari bilan do‘stona va ahil qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va

fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor [1].

O'zbekiston xalqaro maydonda jumladan, BMT, ShHT kabi tashkilotlar va C5+1 sammitlarida faol ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72, 75 va 76-sessiyalari, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi ishtiroki mamlakatimiz tashqi siyosatida sifat jihatidan yangi sahifa ochdi. Xususan, 2017-yil sentabrda o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi O'zbekiston va ushbu nufuzli xalqaro tuzilma o'rtasidagi muloqotni tizimli va o'zaro manfaatli asosda qayta tiklashda burilish nuqtasi bo'ldi.

Oliy darajadagi siyosiy iroda natijasida BMT Bosh kotibi Antonio Guterrishning O'zbekistonga tashrifi (2017-yil iyun) hamda Nyu-York va Pekin sammitlari doirasidagi samarali uchrashuvlar o'zaro hamkorlikning "yo'l xaritalari" va amaliy chora-tadbirlar rejalariga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, BMT Bosh Assambleyasining oltita muhim rezolyutsiyasida o'z tasdig'ini topdi:

- 1) Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash (2018-yil iyun)
- 2) ma'rifat va diniy bag'rikenglik (2018-yil dekabr)
- 3) Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish (2019-yil dekabr)
- 4) Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish (2021-yil may)
- 5) Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risida (2022-yil iyul)
- 6) barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida (2022-yil dekabr)[4].

BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi doirasida O'zbekiston tashabbusi bilan "COVID-19 pandemiyasining yoshlar huquqlariga ta'siri to'g'risida"gi rezolyutsiya (2021-yil oktabr), YUNESKOda esa 2021-yil 14-16-sentabr kunlari Xiva shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro madaniyat forumi yakuniga bag'ishlangan "Xiva jarayoni" rezolyutsiyasi (2021-yil noyabr) qabul qilindi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan "Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi kodeks" BMT Bosh assambleyasi rasmiy hujjati sifatida tarqatilib, mamlakatimizning COVID-19 bilan kurash bo'yicha umumbashariy sa'y harakatlarga qo'shgan hissasi sifatida yuqori baholandi. Ko'p tomonlama hamkorlikning yangi ruhini qo'llab-quvvatlagan holda, O'zbekiston BMTga a'zo davlatlar bilan birgalikda Bosh Assambleyaning qator yangi

rezolyutsiyalari ustida ish olib bormoqda[4].

O'zbekiston Jahon Savdo Tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish jarayonini yakunlash arafasida turibdi. Mamlakatning JSTga a'zolik jarayoni 1994-yilda boshlangan bo'lib, 2005-yildagi Andijon voqealaridan keyin muzokaralar ma'lum muddatga to'xtab qolgan edi. Ushbu jarayon 2020-yilda qayta faollashtirildi va ayniqsa, 2023–2025-yillar davomida sezilarli darajada jadallashdi. So'nggi yillarda erishilgan asosiy yutuqlar quyidagilardan iborat. Avvalo, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Kanada, Ekvador va boshqa davlatlarni o'z ichiga olgan jami 33 ta mamlakat bilan ikki tomonlama protokollar imzolandi. 2025-yil dekabr oyida Sankt-Peterburg shahrida Rossiya Federatsiyasi bilan yakuniy protokol imzolanishi mazkur jarayonda muhim bosqich bo'ldi. Shu bilan birga, bojxona tartib-taomillari, texnik reglamentlar, eksport bojlari hamda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishga doir 29 ta yangi huquqiy hujjatni qabul qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni JST bitimlarining talablariga moslashtirish ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda. Xususan, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda[5].

Mazkur yutuqlar O'zbekistonning multivektorli tashqi siyosati samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Mamlakat Rossiya va Xitoy bilan strategik hamkorlikni saqlab qolgan holda, Yevropa Ittifoqi va AQSh bilan iqtisodiy hamda savdo aloqalarini chuqurlashtirib, global iqtisodiy tizimga integratsiyani izchil kuchaytirmoqda. JSTga a'zolik O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy subyektivlikni mustahkamlashning muhim instrumenti bo'lib xizmat qiladi hamda mamlakatning jahon bozoridagi o'rnini huquqiy jihatdan kafolatlaydi[5].

**O'zbekistonning C5+1 sammitidagi ishtiroki.** C5+1 formati Markaziy Osiyoning besh davlati hamda Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi hamkorlik platformasi bo'lib, 2015-yilda Samarqandda tashkil etilgan. Ushbu format mintaqaviy savdo, transport, energetika, investitsiyalar va xavfsizlik masalalarini muhokama qilish uchun muhim mexanizm sifatida rivojlandi[6].

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu formatdagi sammitlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Ikkinchi va eng muhim sammit 2025-yil 6-noyabrda Vashingtondagi Oq uyda bo'lib o'tdi. Tadbirga AQSh Prezidenti Donald Tramp raislik qildi. Sammitda Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etdi.

Prezident Mirziyoyev nutqida C5+1 platformasining so'nggi 10 yil davomida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda samarali mexanizm bo'lganini ta'kidladi. U strategik muloqotni yangi bosqichga olib chiqish zarurligini qayd etib, quyidagi tashabbuslarni ilgari surdi:

- 1) doimiy ishlaydigan Kotibiyat tashkil etish

- 2) investitsiyalar va savdo bo'yicha vazirlar darajasidagi muvofiqlashtiruvchi kengash yaratish
- 3) "Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi" jamg'armasini ishga tushirish;
- 4) muhim minerallar va transport-kommunikatsiya loyihalarida AQSh bilan hamkorlikni faollashtirish
- 5) qishloq xo'jaligini Amerika texnologiyalari bilan modernizatsiya qilish[7].

C5+1 formati nafaqat AQSh bilan cheklanmagan. 1990-yillardan boshlab Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Fors ko'rfazi davlatlari, Germaniya va Buyuk Britaniya ham o'z versiyalarini yaratgan. Bugungi kunda taxminan 10 ta turli C5+1 formati mavjud. Bu Markaziy Osiyoning geostrategik ahamiyati ortib borayotganini va mintaqaga yagona mintaqaga sifatida ko'rilayotganini ko'rsatadi.

AQShning C5+1 formati 2015-yilda Samarqandda boshlangan bo'lib, Rossiya va Xitoyning kuchayib borayotgan ta'siriga qarshi muvozanat sifatida talqin qilinadi. Rossiya o'z versiyasini Markaziy Osiyodagi "imperial nazoratni" saqlash va G'arbga qarshi pozitsiyani kuchaytirish uchun ishlatmoqda. Xitoy esa 2023-yilda Sian shahrida o'tkazilgan birinchi sammitda "umumiy taqdir hamjamiyati" g'oyasini ilgari surib, "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida faoliyat yuritmoqda. Ushbu uch tomonlama raqobat (AQSh–Rossiya–Xitoy) Markaziy Osiyo davlatlarini "geosiyosiy shaxmat taxtasi"da sinovdan o'tkazmoqda. Shu bilan birga, mintaqada davlatlari o'z mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini himoya qilishda muhim rol o'ynamoqda[8].

**O'zbekistonning roli va C5+0 g'oyasi.** O'zbekistonning C5+1 formatidagi faol ishtiroki mamlakatning multivektorli tashqi siyosati samaradorligini namoyon etadi. Prezident Mirziyoyevning tashabbuslari mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan. Akademik tahlillarda ta'kidlanishicha, Markaziy Osiyo davlatlari birinchi navbatda o'z ichki integratsiyasini kuchaytirishi kerak. Buning ramziy ifodasi — C5+0 formulasidir. Ya'ni, besh davlat o'z mintaqaviy birlashuvini birinchi o'ringa qo'yib, keyin har bir "+1" bilan hamkorlik qilishi lozim. Bu yondashuv tashqi kuchlarning ta'siridan mustaqil bo'lishga yordam beradi. [8]

O'zbekistonning 2025-yilgi Vashington sammitidagi faol pozitsiyasi aynan shu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi va mamlakatning mintaqaviy yetakchilik rolini yana bir bor tasdiqladi.

### **Xulosa**

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati ochiqlik, mustaqillik va o'zaro manfaat tamoyillariga tayanib, Markaziy Osiyoni barqaror rivojlanish markaziga aylantirishga qaratilgan strategik yo'nalishni belgilab berdi. Prezident Shavkat

Mirziyoyev rahbarligida mamlakat mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va global maydonda faol ishtirok etish orqali o‘z nufuzini mustahkamladi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyili mamlakat oldiga qo‘yilgan aniq vazifalarni – demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlashdan tortib, xorijiy investitsiyalar va eksportni oshirishgacha – muvaffaqiyatli bajarish imkonini yaratmoqda. BMT doirasidagi muhim tashabbuslar, Jahon Savdo Tashkilotiga a‘zolik jarayonining yakunlanishi va C5+1 formatidagi faol pozitsiya O‘zbekistonni nafaqat mintaqaviy yetakchi, balki xalqaro hamjamiyatning muhim a‘zosi sifatida ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati - <https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14455>
2. Islomova, Yulduz Ilxom Qizi (2025). YANGI O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSIY STRATEGIK QARASHLARI: INTEGRATSIYADAN GLOBAL HAMKORLIKKACHA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5 (1), 22-32.
3. PF-21-сон 16.02.2026. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida - <https://lex.uz/docs/-8050769>
4. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari - <https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14469>
5. Moxidov, J. O. (2026). O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lishi: Milliy suverenitet va global integratsiya dilemmasi. *Shokh Library*, 1(1). <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/12776>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. (2025, 6-noyabr). Ўзбекистон Президенти “С5+1” форматидаги шерикликни янада кенгайтиришга чақирди. <https://www.president.uz/uz/lists/view/8635>
7. Kun.uz. (2025, 7-noyabr). “S5+1” sammiti: Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlik bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. <https://kun.uz/news/2025/11/07/s51-sammiti-shavkat-mirziyoyev-mintaqaviy-hamkorlik-boyicha-qator-tashabbuslarni-ilgari-surdi>
8. Tolipov, F. (2024). The “C5+1” on the Central Asian Geopolitical Chessboard. *Horizons: Journal of International Relations and Sustainable Development*, (27), 254–265. <https://www.jstor.org/stable/48790054>